**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Байбурина А.К. Мифологема. Народные знания. Фольклор. Народное искусство. М., 1991, с. 78.

(2). Kdırbaeva G. Numerativ birliklar lingvomadaniy xususiyatlari. Quality of teacher education under modern challenges. 2023, T. 1, №.1, p. 967–969.

(3). Топорков А.Л. Мифологема. Восточнославянский фольклор. Словарь научной и народной терминологии. Минск, 1993, с. 154.

(4). Шафранская Э.Ф. Устное народное творчество. Учеб. пособие, М., “Академия”, 2008.

(5). Юнг К.Г. Архетип и символ. М., “Канон”, 1991, 330 с.

(6). Cognitive Linguistics in Action: from theory to application and back /edited by Elz˙bieta Tabakowska, Michał Choin´ ski, Łukasz Wiraszka. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG. Berlin, 2010, 411 p. (7). https://www.textologia.ru/slovari/literaturovedcheskie-terminy/mifologema/?q=458&n=348

(8). Qaraqalpaq folklori. IV jild, Qaraqalpaq naqıl maqallari, 1978.

(9). https://hallofpeople.com/en/proverbs/a1.php

**Saidova Lolaxon Maxammadjonovna (Andijon davlat Chet tillari instituti katta o‘qituvchisi; lolaxon.saidova@mail.ru)**

## O‘ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Dunyodagi turli xalqlarda turlicha antroponimik tizim mavjud bo‘lgan. O‘zbek tili, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan, antroponimlarni o‘z ichiga olgan bir qator semantik va uslubiy xususiyatlarni namoyon etadi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi antroponimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *antroponomika, onomastika, nominativ vazifa, ism ma’nosi tushunchasi, ishonch, e’tiqod.*

**Саидова Лолахан Махаммаджановна (старший преподаватель Андижанского государственного института иностранных языков; lolaxon.saidova@mail.ru)**

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТРОПОНИМОВ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

***Аннотация.*** *У разных народов мира существовали разные антропонимические системы. Узбекский язык, обладающий богатым историко-культурным наследием, обладает рядом семантических и стилистических особенностей, в том числе антропонимами. В данной статье изучаются семантические и стилистические особенности антропонимов в узбекском языке.*

***Ключевые слова:*** *антропономика, ономастика, номинативная функция, понятие значения имени, доверие, убеждение.*

**Saidova Lolakhan Makhammadjonovna (Senior teacher of the Andijan State Institute of Foreign Languages)**

## SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ANTHROPONYMS IN UZBEK LANGUAGE

***Annotation.*** *Different peoples of the world had different anthroponymic systems. The Uzbek language, which has a rich historical and cultural heritage, has a number of semantic and stylistic features, including anthroponyms. This article studies the semantic and stylistic features of anthroponyms in the Uzbek language.*

***Key words:*** *anthroponomics, onomastics, nominative task, concept of name meaning, trust, belief.*

**Kirish.** Antroponimlar – insonlarning ismlari, familiyalari, otasining ismi va boshqa shaxsiy nomlarini o‘z ichiga olgan atamalar bo‘lib, ular nafaqat ijtimoiy muhitda, balki tilda ham muhim o‘rin egallaydi.

Antroponim so‘zining leksik ma’nosini aniqlashdan avval, antroponomiya atamasiga alohida e’tibor qaratish kerak. Ma’lumki, ismlarni o‘rganish borasida tilshunoslikda ismshunoslik yoki nomshunoslik sohasi mavjud bo‘lib, u onomastika deb ataladi. Uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan antroponomikada kishilarning ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilar o‘rganiladi. “Antroponim”–“antropos – odam+ onyma–nom, kishining atoqli oti, nom” deb ta’rif beriladi. Antroponomika–yunoncha ‘antros’–shaxs’ va ‘onoma’–ism so‘zidan olingan bo‘lib, leksikologiya (onomastika)ning kishi otlarini (nomlarini) o‘rganuvchi bo‘limidir. Barchaga ayonki, antroponomika nutqda antroponimning vazifasini aniqlab, shaxsning jamiyatga kirishi, boshqa e’tiqodga o‘tishi, yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy ahvolining o‘zgarishi, boshqa millat vakillarining yashash tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni farqlash, ularni aniqlash, ismlarning o‘zgarishi, o‘ziga xosligi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda qo‘llanilishi, foydalanish qoidalari, tuzilishi va rivojlanishi antroponomikaning muhim qismidir [1;10 p.]. Antroponimiya tilda mavjud bo‘lgan barcha kishilar nomlari majmuyidir. Ilgari antroponimiya o‘rnida “onomastika” atamasi ishlatilgan, keyinchalik esa insonning kelib chiqishi, urug‘-aymog‘i, otasi, millati, insoniy fazilatlari tahliliga ko‘ra, qayta nomlagan-

lar. Antroponimlar mazmun-mohiyatini o‘rganish uzoq davrlardan beri lingvistik tadqiqotlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

**Tadqiqot usullari.** Antroponimlar ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilishiga qaramay, uning pragmatik va kognitiv xususiyatlari hali ham yetarlicha tadqiq qilinmagan. Antroponimlar, ya’ni, inson ismlari, tilshunoslikda ko‘plab aspektlardan, shu jumladan, semantika, pragmatika va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Pragmatik tahlil esa antroponimlarning vazifasini va ijtimoiy kontekstdagi o‘rnini aniqlashga imkon beradi, shu bilan birga, kognitiv yondashuv inson ismlarini tanish va o‘rganish jarayonida miyamiz qanday ishlashini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqot usullari sifatida, semantik tahlil orqali antroponimlarning semantik kengayishi, ya’ni, ularning ma’no qatlamlarining o‘zgarishi va yangi konnotatsiyalarni kiritish jarayonlarini aniqlash mumkin. Pragmatik yondashuv esa tilning jamiyatda qanday ishlatilishi, kontekstga bog‘liq ravishda ismlar qanday turli vazifalarni bajarishini o‘rganadi. Kognitiv tahlil esa ismlarni qanday qayta ishlash va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni qanday saqlashni o‘rganadi. Ushbu usullar birgalikda antroponimlarning tilshunoslikdagi roli hamda ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘zgarishlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Munozara va natijalar.** Dunyodagi turli xalqlarda antroponimik tizimlar farq qiladi. Masalan, qadimgi Rimda erkaklarning ismi oldidan avloddan avlodga o‘tadigan urug‘ nomi kiritilgan, bu esa ular kelib chiqadigan urug‘ning shajarasini aks ettirgan. Hozirgi Ispaniya va Portugaliyada biror shaxs bir nechta xos ism (katolik cherkovi ro‘yxatidan olingan) va ota-onasining familiyasini olishi mumkin. Islandiyada esa har bir kishi cheklangan ro‘yxatdan tanlangan bir necha xos ism va familiya o‘rnida otasining ismidan hosil bo‘lgan nomga ega bo‘ladi. Xitoy, Koreya, Vyetnamda esa kishi ismi bir bo‘g‘inli familiya (turli davrlarda 100 dan 400 gacha), odatda, ikkita bir bo‘g‘inli morfemadan iborat xos ismdan tashkil topgan bo‘ladi va xos ismlar soni cheklamagan.

O‘zbek antroponimlari ko‘p asrlar davomida turli madaniyatlar, dinlar va tillar ta’sirida rivojlanib kelgan. O‘zbek xalqining o‘tmishdagi turk, mo‘g‘ul, arab, fors, rus va boshqa xalqlarga tegishli turli elementlari antroponimlar tizimida o‘z aksini topgan.

O‘zbek tilidagi antroponimlar nafaqat shaxslarni tanitish, balki ijtimoiy hayot, oilaviy an’analar va madaniyatni ham aks ettiradi. Masalan, ismlar orasidagi iyerarxiya, dindorlik, madaniy qadriyatlar va jamiyatdagi o‘rin ko‘plab o‘zgarishlarga qarab shakllanadi. O‘zbek jamiyatida ba’zan ism va familiyaning ma’nosi muhim bo‘lib, insonning hayoti, uning yuksalishi yoki qulashini anglatishi mumkin. Shuningdek, nomlarning afsonaviy va tarixiy aloqalari ham muhimdir. O‘rta asrlarda buyuk shaxslar, davlat arboblari, tarixiy va diniy peshqadamlar nomlari, ko‘pincha, avloddan avlodga o‘tib, o‘sha shaxslarning hurmati va o‘rni haqida xabar beradi.

O‘zbek antroponimiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o‘rganishga oid tadqiqotlar 20-asrning 60-yillarida boshlandi. Shu davrga qadar bolaga ism qo‘yishga bag‘ishlangan ba’zi ilmiy va ommabop maqolalar nashr etilgan edi. O‘zbek ismlarining ma’nolarini ommabop tarzda tushuntirgan birinchi risolani esa Y.Menajiyev va X.Azamatovlar yozishgan. Risolada ismlar ma’nosini tushunish, ism ma’nosining asosi bo‘lgan motivlar va boshqalar yuzasidan jiddiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan. Bu nuqsonlar haqida alohida to‘xtalib o‘tirmaymiz. Chunki ular haqida E.Begmatov va A.Irisov yozgan taqrizlarda keltirilgan [1;15-b.]. Ushbu risolaning bir qismi, keyinchalik,“Fan va turmush” jurnalida nashr etildi. So‘ngra, risola E. Begmatov va D.Abdurahmonovlar tomonidan qayta ishlanib, yangi shaklda chiqarildi. Yangi nashrda ismlarning nominativ vazifasi, ism ma’nosi, ism berishdagi an’analar va udumlar, shuningdek, ishonch va e’tiqodlarga oid muhim ma’lumotlar taqdim etilgan. Ayniqsa, diniy ma’noga ega ismlarning bolaga qo‘yilish sabablari (masalan, Xudoyberdi, Tangriberdi, Xudoyor, Xudoynazar, Ollonazar, Qudratulla), ism qo‘yishda totemistik va animistik e’tiqodlar (Bo‘riboy, Bo‘ritosh, Bo‘riniso, Boybo‘ri, Itolmas), ismning sehrli kuchiga ishonish (Ortiqboy, Oltiboy, Ziyodulla, Nishonboy, Xolboy, Xolniso, Norboy, Norxol) bilan bog‘liq qarashlar, shuningdek, zooantroponim va fitoantroponimlarning paydo bo‘lish sabablari (Qo‘ziboy, Norqo‘zi, To‘qliboy, Sarkaboy, Qo‘chqor, Takaboy va boshqalar) haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, chaqaloqni bevaqt nobud bo‘lishdan va kasalliklardan himoya qilish maqsadida berilgan ismlarning etnografik asoslari (To‘xta, O‘lmas, Tursun, Temir, Toshboy, Toshtemir va boshqalar) ham tahlil qilingan.

Quyidagi fikrni kitob mualliflarining qayd qilingan tahlillariga xulosa sifatida keltirish mumkin: “Demak, bolani nomlash odatlari va kishi nomlarining paydo bo‘lishi, rivoji, dastlab, xalqning iqtisodiy-xo‘jalik sharoiti, shunga bogliq holda ma’noviy turmushi, jumladan, diniy va estetik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti bilan yaqindan bog‘liq hodisadir”. Kitobda kishi nomlari, ya’ni antroponimlarning ma’nosi yuzasidan ham fikr bildirilgan. Mualliflarning ushbu masala bo‘yicha olib borgan tahlillari ism ma’-

nosining uch xil talqini mavjudligini ko‘rsatadi. Ular: a) ismning asosini tashkil etuvchi so‘zning lug‘aviy ma'nosi; b) ismning tanlanishi va qo‘yilishi bilan bog‘liq etnografik ma’no; d) ismning yakka shaxsning atoqli oti sifatida yuzaga keladigan yakka va xususiy tushuncha bilan bog‘liq ma’nosi. Ushbu ma’nolarni tahlil qilganidan so‘ng, mualliflar quyidagi xulosaga kelishadi: “Xullas, kishi nomlarining ma’nosi bormi va uni nima tashkil etadi, degan savol tilshunoslikda hali ham to‘liq va aniq hal qilinmagan, mulohazali masalalardan biridir” [2;98-b.].

Ism ma‘nosini, ko‘pincha, nom uchun asos bo‘lgan leksemaning denotativ ma’nosi bilan tenglashtirilishi sababini mualliflar quyidagicha izohlashgan: “Kishi nomlarini konkret shaxsning nomi sifatidagi ma’nosini ko‘p holatlarda izohlab bo‘lmasligi va nomlarning etnografik ma’nosini izohlash esa nihoyatda murakkab va qiyinligi, ko‘pincha, ismlar ma’nosi haqida gap ketganda, nom uchun asos bo‘lgan so‘z anglatuvchi ma’noni tushuntirib berishga urunishning kuchayishiga olib keldi va bu ma’no ismlarni anglatuvchi ma’no, deb taqdim etildi. Lekin yuqorida qayd qilganimizdek, bu ma’no ism uchun asos bo‘lgan so‘zning turdosh otlik ma’nosidir”.

Odatda, chaqaloqqa ismni ota-onasi, qarindosh-urug‘ yoki oiladagi keksa kishilar tanlaydilar. Ism tanlash esa estetik va etik tamoyillarga, ism tanlovchilarining orzu-istaklari, tasavvur va dunyoqarashlari, milliy xususiyatlar va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ism qo‘yishda diniy ta’sir, ayniqsa, kuchli bo‘lgan. Xristianlikning shakllanishi va monoistik din sifatida taraqqiy etganidan so‘ng, Bibliyadagi payg‘ambarlar ismlari ko‘plab xalqlarda ommaviy ravishda qo‘llaniladigan ismga aylangan. Islom dinining tarqalishi esa Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklarda diniy tushunchalar bilan bog‘liq ismlarning ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Xalqimizda Qur’oni karimda zikr etilgan Allohning go‘zal ismlarini (al-Asmo al-husno) va Muhammad (s.a.v)ning nomlarini farzandlariga qo‘yish an’ana bo‘lgan. Shunday qilib, har bir ism ma’lum bir sababga ko‘ra paydo bo‘lib, o‘z tarixiga, geografik tarqalishiga, hududiga va mazmuniga ega. Qadim zamonlardan ism qo‘yish an’analari va udumlari saqlanib qolgan, chunki bolaning sog‘lom bo‘lishi, uzoq umr ko‘rishi va baxti, ko‘pincha, unga berilgan ismga bog‘liq deb hisoblangan. Muvaffaqiyatli tanlangan ism kishining taqdiri va hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi, ism uning ruhiyatini aks ettiradi va odam o‘z ismiga o‘xshashi mumkin, deb ishonilgan [3;122-b.].

Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek jamiyatida antroponimlarning qayta tiklanishi va o‘zgarishi kuzatilmoqda. Internet, globalizatsiya, va madaniy almashuvlar natijasida, yangi ismlar va familiyalar ko‘proq qaror topmoqda. O‘tmishda ko‘plab an’anaviy o‘zbek ismlari ustun bo‘lsa-da, bugungi kunda inglizcha, arabcha va boshqa xalq ismlarining ko‘payishi kuzatiladi. Misol tariqasida Sumayya, Sadya, Yasmina, Spartak, Messi, Ronaldo, Artur, Klara kabi ismlarni keltirishimiz mumkin.

Farzandga ism qo‘yish azal-azaldan ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan an’anadir. Bunda ota-onaning qarindosh-urug‘larining xohish va niyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ismlarni tanlashda an’anaviy nomlar orasidan tanlash avloddan avlodga, oiladan oilaga o‘tib kelayotgan merosiy omildir [4;3-b.]. Shuningdek, ko‘plab yoshlar o‘z nomlarini yangilashni yoki inglizcha nomlar qo‘llashni afzal ko‘rishadi. Misol uchun, ba’zi odamlar o‘zlarining ismlariga inglizcha “John”, “Anna” kabi nomlarni qo‘shadilar, bu esa antroponimlarning global kontekstdagi o‘zgarishiga ishora qiladi.

**Xulosa.** O‘zbek tilidagi antroponimlar nafaqat shaxsiy nomlar bo‘lib qolmay, balki ular tilda chuqur semantik va uslubiy ma'nolarni ifodalovchi elementlar sifatida mavjud. Ular nafaqat ijtimoiy va madaniy kontekstda, balki badiiy adabiyotda ham muhim rol o‘ynaydi. Antroponimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari milliy tilning o‘ziga xos jihatlari bilan birga, xalqning tarixiy, diniy va madaniy qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etadi. O‘zbek tilidagi antroponimlarning o‘zgarishi va rivojlanishi til va madaniyatning jonli, dinamik xususiyatlarini aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013.

(2). Qilichev B. Onomastika. Buxoro, 2023, 180-bet.

(3). Husanov N.A. O‘zbek antroponimlari tarixi. Toshkent, 2014, 105-bet.

(4). Maxammadjonovna, S.L. (2024). Places of use of anthroponyms in uzbek. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(09), p. 33–35.